

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**MILLIY G'OYA TARIXI VA NAZARIYASI
O'QUV DASTURI**

| | |
|---------------------|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta'lism |
| Ta'lism sohasi: | 110000 – Ta'lism |
| Ta'lism yo'nalishi: | 60112100-Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi |

Chirchiq – 2023

| | | | | |
|--|---|---|--|------------------------------------|
| Fan/modul kodi MG'TN205 | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 3 | ECTS - Kreditlar 5 | |
| Fan/modul turi Majbuliy | Ta'lim tili O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari 4 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Milliy g'oya tarixi va nazariyasi | 60 | 90 | 150 |
| 2. | <p>I. Fanning mazmuni.</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga milliy g'oyaning vujudga kelishi, shakllanish bosqichlari va tarixiy ildizlari, g'oyalarning inson va jamiyat hayotida tutgan o'rni hamda rolini ochib berish, har bir xalq va millatning o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi, taraqqiyotga intilishi va milliy yuksalishida g'oya va mafkuralarning ahamiyati haqida ilmiy bilimlar berishdan iborat.</p> <p>Fanning asosiy vazifasi – jamiyatimizda mustaqil fikrlash salohiyatini, milliy g'oyani mustahkamlash, targ'ib va tashviq qilish malakasini, har bir shaxs hamda yoshlarning hayotiy faoliyatida g'oya va mafkuralarga oqilonha munosabatni, mafkuraviy jarayonlarni to'g'ri anglash, tahlil qilish va baholash, shuningdek ularغا mustaqil yondasha oladigan, zamon talablariga mos yosh kadr va mutaxassislar tarbiyalash kabilardan iborat.</p> <p>II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi" fanning predmeti, maqsadi, vazifalari, kategoriyalari, qonuniyatlar, metod va prinsiplari.</p> <p>O'zbekiston mustaqilligi va mafkuraviy muammolar. Mafkuraviy muammolarning dolzarb ahamiyat kasb etishi va ularni hal etishdagi chora-tadbirlar. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fanning ta'lim tizimiga kiritilishi va uning ahamiyati. "G'oyalarning tarixi va nazariyasi" fanning predmeti va ob'ekti. Fanning ob'ekti - xalqimizning tarixiy va milliy merosini, qadriyat, an'ana va maqsadlari, demokratik prinsiplari namoyon bo'lishining umumiy va milliy xususiyatlarini o'rganish. Fanning predmeti – g'oya va mafkuralar bilan bog'liq qonun va kategoriyalar, g'oyalarning tarixiy ildizlari, xalqimizning ma'nnaviy merosi va qadriyatlarining shakllanishi, umuminsoniy demokratik prinsiplar, milliy mafkuraning g'oya va tamoyillarining o'zaro munosabati, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Fanning maqsadi - g'oyalarning vujudga kelishi, shakllanish bosqichlari va tarixiy ildizlari, g'oyalarning inson va jamiyat hayotida tutgan o'rni hamda rolini ochib berish, har bir xalq va millatning o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi, taraqqiyotga intilishi va milliy yuksalishida g'oya va mafkuralarning ahamiyatini tushuntirib berish. Fanning vazifalari – milliy g'oyaning shakllanish va rivojlanish tarixi va nazariyasi bilan bog'liq asosiy tushuncha va tamoyillar asosida yoshlar dunyoqarashini shakllantirish, ularning milliy g'oyaga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, vatanga sadoqat, milliy g'o'rur va iflixor tuyg'ularini tarbiyalash, O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi asosida</p> | | | |

huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini yanada yuksaltirish, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" shiori asosida yoshlarni birlashtirish va ularni yuksak g'oyalar sari yo'naltirish. Fanning funksiyalari: evristik, metodologik, siyosiy, amaliy, ilmiy bashorat qilish, dunyoqarashni shakllantirish va g'oyaviy-tarbiyaviy funksiyalar.

Fan kategoriyalari, qonuniyatlar va ularning o'ziga xosligi to'g'ri tushunishning ahamiyati. Fannning asosiy kategoriyalari: g'oya, mafkura, bunyodkor va vayronkor g'oyalar, g'oyalar tizimi, mafkuraviy tizim, mafkuraviy immunitet. Ideal kategoriyalar tizimi. Fan qonuniyatlar tizimi. G'oya va mafkuralarning bir-birini taqozo etish qonuni. G'oya va mafkuralarning inson va jamiyat hayoti bilan uzviy aloqadorligi qonuni. G'oya va mafkuraning ijtimoiy taraqqiyotga bog'liqligi qonuni. Fan metodlari - eng umumiyligi, umumiy va xususiy metodlar. "G'oyalar tarixi va nazariyası" fanining prinsiplari: ob'ektivlik, tarixiylik, mantiqiylik, ijtimoiy yondashuv, milliy xususiyatlarni inobatga olish.

2-mavzu. Milliy g'oyaning shakllanish tarixi va ularning namoyon bo'lish xususiyatlari.

Inson, jamiyat, millat va xalqlar hayotida g'oya va mafkuralarning tutgan o'rni. G'oya va mafkuralarning tarixiy ildizlari. Dastlabki g'oyaviy qarashlar va manbalar. Urug'-qabilachilik davridagi ilk g'oyaviy qarashlar va ularning vazifasi.

Milliy g'oya tarixi. Avesto milliy g'oya shakllanishidagi muhim manba. Xalq og'zaki ijodi namunałari, qahramonlik motivlari, milliy va umuinsoniy g'oya ko'rinishlari. Vatan ozodligi yo'lidagi kurashlarda erkinlik, hamjihatlik, vatanparvarlik g'oyalarining namoyon bo'lishi. To'maris, Spitamen, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur va Ulug'bek kabi xalq qahramonlari faoliyatida milliy g'oyalarning ahamiyati. O'rta asrlardagi g'oyaviy qarashlar tarixi va xususiyatlari. Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Farobi, Beruniy, Ibn Sino, Buxoriy, Termiziylar faoliyati va ularning g'oyaviy rivojlanishdagi ahamiyati. Ma'rifatparvarlik va jadidchilik g'oyalarining o'ziga xosligi. Mustamlakachilik mafkurasi va uning salbiy oqibatlari. O'zbekiston mustaqilligini va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari va Yangi O'zbekiston g'oyalarining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati.

3-mavzu. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasining jamiyatimiz hayotidagi o'rni.

Mustaqillikning dastlabki yillarda O'zbekiston Respublikasida jamiyat g'oyaviy-mafkuraviy asoslarining o'zgarishi. Totalitar kommunistik g'oya va mafkuradan voz kechilishi. Jamiyat ijtimoiy hayotining asoslariga yangicha qarash va ularning huquqiy asoslari. Jamiyat hayoti sohalarining siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligiga asoslanishi. Hech bir mafkuraning davlat mafkurasi sifatida o'matilishi mumkin emasligi. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov va prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev asarlarida milliy

g‘oyanining nazari va amaliy jihatdan asoslanishi. Milliy g‘oya konsepsiyalarining ishlab chiqilishi. “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” konsepsiyasining mohiyati va yo‘nalishlari.

4-mavzu: Tarixiy taraqqiyot va uning g‘oyaviy – mafkuraviy mezonlari.

Tarixiy taraqqiyotning g‘oyaviy-mafkuraviy mazmuni, milliy madaniyatimizni xolisona, ilmiy asosda o‘rganish davr taqozosi, jamiyat ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti va milliy mafkura rivojlanishining o‘zaro bog‘liqligi. Insoniyat ijtimoiy taraqqiyoti uzoq davom etgan tarixiy jarayon bo‘lib, unda kishilarning erishgan moddiy va madaniy merosi o‘z aksini topgan. Tarixiy taraqqiyot jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy, g‘oyaviy-mafkuraviy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda yuz beradi.

5-mavzu. “Globallashuv”, “milliy g‘oya” va “innovatsion texnologiyalar” tushunchalarining mazmun-mohiyati va o‘zaro aloqadorligi.

Globallashuv jarayonlari tushunchasining mazmun-mohiyati, milliy g‘oyaning jamiyat hayotida namoyon bo‘lish shakllari, innovatsion texnologiyalar tushunchasining mazmun-mohiyati hamda “Globallashuv”, “milliy g‘oya” bilan o‘zaro aloqadorlik jihatlari. Bugunga kelib global o‘zgarishlar muqarrar va ortga qaytarib bo‘lmas jarayonga aylandi. Dunyoda o‘zaro bog‘liqlik tobora ortib borayotgan hozirgi sharoitda inson jahonda sodir bo‘layotgan muammolardan ayri holda mavjud bo‘la olmasligini anglab yetdi. Global o‘zgarishlar hammaga birdek o‘z ta’siri o‘tkazmoqda. Yer shari aholisining taqdiri tobora o‘zaro mahkam va chambarchas bog‘liq bo‘lib bormoqda.

6-mavzu. Yoshlarning huquqiy ongi, madaniyatini oshirishning ba’zi masalalari. Jamiyatni demokratlashtirish va mamlakatni modernizatsiyalashtirishda siyosiy partiyalarning roli.

Inson erkinligi, huquq va manfaatlari tushunchasining mazmun-mohiyati. Milliy g‘oyanining erkinligi, huquq va manfaatlari ustuvorligi prinsipiiga asoslanishi. Milliy g‘oya barkamol avlodni tarbiyalash omili. Barkamol avlodga xos xususiyatlar.

Inson manfaatlarini ta’minlash – yuksak qadriyat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutisiysi – inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini ta’minlashning kafolati. Mustaqillik sharoitida milliy g‘oyani rivojlantirish, uning ma’naviy ta’sirchanligi va mafkuraviy samaradorligini oshirish jarayonida inson huquq va erkinliklarini takomillashtirish muammolari. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining “Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloq qilish” ustuvor yo‘nalishi asosida olib borilayotgan islohotlar va ularning amaliy samarasи.

Siyosiy institutlar va mafkuralar xilma-xilligi tushunchasi. Milliy g‘oyaning siyosiy institutlar va mafkuralar xilma-xilligiga asoslanishi. Siyosiy plyuralizm. Fikrlar xilma-xilligini ta’minlashda mafkuraviy plyuralizmning ahamiyatni.

Siyosiy partiylar faolligini oshirish va milliy g‘oyani takomillashtirish. Siyosiy institutlar, yondashuvlar xilma-xilligining jamiyat rivojiga ta’siri, uning demokratik xarakteri. Milliy g‘oya va mafkura yakkahokimligiga qarshi kurashning konstitutsiyaviy, huquqiy asoslari.

7-mavzu. Milliy g‘oya va mafkuraning dunyoviy xarakteri.

Milliy g‘oya va umummafkuraviy jarayonlar tushunchasining mohiyati va o‘zaro munosabati. Mafkuraviy jarayonlarning turli guruuhlar va qatlamlar manfaatlari bilan bog‘liqligi, uni anglash darajalari. Mafkuraviy jarayonlarning turli g‘oyalari va mafkuralar bilan bog‘liqligi. Dunyoning mafkuraviy manzarasi va mafkuraviy jarayonlar. Mafkuraviy kurashlar. Geosiyosat va geosiyosiy manfaatlari. Milliy g‘oya mafkuraviy kurashlardagi muhim omil.

Milliy g‘yaning o‘ziga xos xususiyatlari. Milliy g‘yaning millat manfaatlari va taraqqiyot yo‘lini bilan bog‘liqligi. Milliy g‘oyani rivojlantirish tushunchasi. Milliy g‘oya rivojlanishining ong va tafakkur, turli xil omillar bilan bog‘liqligi.

8-mavzu. Milliy g‘oyani singdirishda yoshlar ongingin transformatsiyalanish jarayonlari.

“Transformatsiya” tushunchasining milliy g‘oyada aks etishi, global o‘zgarishlar davrida yoshlar ongingin transformatsiyaga uchrashi, milliy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan vayronkor g‘oya va buzg‘unchi mafkuralar: “Aqidaparastlik”, “Diniy ekstremizm” hamda “Missionerlik”ning asosiya maqsad va vazifalari. Milliy uyg‘onish, milliy tiklanish, milliy taraqqiyot konsepsiysi ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlariiga o‘tish davrida milliy o‘zlikni anglash bilan sintezlashuvi va uning bugungi turmush tarzimiz hamda tafakkur tarzimizda namoyon bo‘lish jarayoni transformatsiyalanishga uchraydi. Shuning uchun ham milliy g‘oya sivilizatsiyasi jahon tarixida xalqlarning taraqqiy etishi, ularning g‘oyaviy birlashuvidan boshlangan. Ular aynan milliy g‘oya asosida qiyin sinovlardan o‘tgan. Milliy g‘oya ularni Vatanga bo‘lgan sadoqati, ma’naviyati va madaniyatini yuksaltirib, buyuk maqsadlar sari safarbar etgan. Natijada, rivojlangan mamlakatlarda milliy g‘oya taraqqiyotga undovchi kuch sifatida xalqlarning milliy qadriyat va xususiyatlariga bog‘lab singdirilgan. Uning qudratli mafkuraviy ta’siri mamlakat aholisini umumiy maqsadlar yo‘lida birlashtirgan.

9-mavzu. Global yutuqlardan foydalananishda milliy g‘yaning samaradorligini oshirish omili

Global o‘zgarishlar davrining milliy g‘oyaga o‘tkazayotgan salbiy ta’siri, global o‘zgarishlar davrida yot g‘oyalarga qarshi kurashishning asoslari, global

o‘zgarishlar davrida milliy madaniyatga rahna soluvchi va ma’naviy-mafkuraviy tahdidlarning oldini olish omillari.

Globallashuv – jahondagi barcha mamlakatlar, hududlar va butun kontinentlarning o‘sib borayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy va boshqa munosabatlарining o‘zarо bog‘liqligi, aloqadorligidir. Boshqacha qilib aytganda, globallashuv – bu barcha xalqlar, jamiyatlar taraqqiyotining o‘zarо bog‘liqigini yanada ortib borish jarayonidir. Shuningdek, xalqlarning madaniyatiga kuchli ta’sir etuvchi hodisa sifatida o‘rganiladi.

10-mavzu. Axborot-kommunikatsiya tizimi g‘oyaviy ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tushunchasining maz mun-mohiyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim tizimidagi o‘rni, “Axborot xurujlari” tushunchasining mazmun-mohiyati, internet tarmog‘ining salbiy jihatlari, axborot xurujlarini bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar, internet tarmog‘ining ijobjiy jihatlari. Bugungi kunga kelib axborot almashinuv jarayoni juda tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Mamlakatimiz ham ana shunday murakkab axborot munosabatlari sharoitida o‘z kelajagini barpo et moqda. Axborot texnologiyalari hamma sohalarda jamiyat hayo tining tobora zamonaviylashuvi va takomillashuviga xizmat qilmoqda. Axborot texnologiyalari fundamental, ijtimoiy-gumanitar fanlarning eng yangi yutuqlaridan unumli foydalangan holda barcha fanlarning muntazam rivojiga shart-sharoit yarattdi.

11-mavzu. Ijtimoiy tarmoqlardagi zararli g‘oyalardan muhofazalanishning innovatsion texnologiyalari.

Ijtimoiy tarmoqlarni shakllantirish borasidagi olimlarning tasavvurlari, ijtimoiy tarmoq platformalari hamda ulardan foydalananish borasidagi ba’zi bir qarashlar, “Manipulyatsiya” tushunchasining ijtimoiy tarmoqlarda aks etishi, jahonda keng yoyilayotgan cho‘pchak mafkuralar g‘oyasining transformatsiyaga uchrash orqali salbiy omillarga sabab bo‘lishi. Bugungi kunda axborot mafkurani singdirishning asosiy vositasi sifatida qaror topib, g‘oyaviy omillar targ‘ibotida yetakchi o‘ringa chiqdi. Axborotning asosiy manbalari esa biz so‘z yurutayotgan ijtimoiy tarmoqlarda ekanligi esa masalaga yanada jiddiy e’tibor qaratishni taqozo etadi. Zero, insonlar ongini “manipulyatsiya” qilishga bo‘lgan urinishlarni ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlarda muntazam uchratish mumkin. Taassufki, madaniy gegemoniya o‘rnatish o‘zga hududlarni o‘z ta’sir doirasiga olish, inson ongini boshqarishning, ya’ni manipulyatsiyaning keng tarqalgan texnologiyasiga aylanmoqda.

12-mavzu. “Ommaviy madaniyat”ning milliy g‘oyaga ziddigi, uning oldini olish shart-sharoitlari, omillari.

Sevishganlar kuni – “Ommaviy madaniyat” bayrami sifatida, “Ommaviy madaniyat”ning ko‘rinishlari sifatida: “Starizm”, “Xeppingin”, “Kich”, “Nigilizm” va “Vandalizm”larning mazmun-mohiyati, “Ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashishning omillari.

13-mavzu. O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikni ta’minlashning muhim jihatlari.

O‘zbekistondagi diniy konfessiyalar haqida tushuncha, millatlararo hamjihatlik va dinlararo bag‘rikenglik jamiyatdagi barqarorlikning muhim omili, hamjihatlik, ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlik – milliy rivojlanishning g‘oyasi sifatida. Diniy bag‘rikenglik, mamlakatda yashovchi har bir millatning, xoh u ko‘p sonli va xoh u kam sonli bo‘lsin, milliy udumlari, an‘analari, bayramlari va milliy tilini hurmat qilish, uni kamsitmaslik – ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlikni ta’minlashda hamda huquqiy, demokratik davlat qaror topishida eng muhim jihatlardan biridir. Zero, O‘zbekiston Respublikasida barcha dirlarga, barcha e’tiqod sohiblariga qonuniga asosda teng imkoniyatlar yaratib bergen.

14-mavzu. Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish davr talabi.

Fikr qaramligi, tafakkur qulligi, jamiyat hayotiga xavf tug‘dirayotgan mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo‘lish omillari, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishning mazmun-mohiyati, ma’rifat ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashishning mexanizmlari.

Yot va zararli g‘oyalarning oldini olishda bir necha yo‘nalishlar, usullar va asoslar mavjud. Ularni amalga oshirish esa bir yoki ikki tashkilotning emas, balki butun bir davlat va jamiatning ishidir.

Davlatning vazifalarini davlat tashkilotlari, jamiatning vazifalarini jamoat tashkilotlari bajaradilar. Tarbiya, ma’naviyat va mafkura masalasida, turli xil ma’naviy va mafkuraviy tahdidlarning oldini olish borasida tashkilotlarning yuridik maqomi katta ahamiyatga ega emas. Eng asosiysi, maqsadga erishish.

15-mavzu. Milliy g‘oya – mafkuraviy immunitetning asosi.

Global o‘zgarishlar davrida zararli mafkuraviy ta’sirlarga qarshi kurashishning mazmun-mohiyati, yoshlarni yot va zararli g‘oyalardan himoya qilishda milliy g‘oya negiziga tayanishning istiqbollarli, mafkuraviy immunitetni shakllantirishning asoslari. Global o‘zgarishlar davrida zararli mafkuraviy ta’sirlarga qarshi kurash milliy g‘oya va mafkuraning bunyodkor mazmun-mohiyatini kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz orasida maqsadga muvofiq tarzda targ‘ib va tashviq etish davomiyligini taqozo etadi. “Biroq, mamlakatimiz tinchligi,

jamiyatimiz barqarorligi, umuminsoniy, milliy va diniy qadriyatlarimizga qarshi qaratilgan, milliy o'zlikni anglash, xalqimizning asrlar davomida shakllangan hayot tarzini barbod qilishga yo'naltirilgan mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning samarali usul va vositalarini ishlab chiqishning maqsadga muvofiqligi.

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi" fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, kategoriyalari, qonuniyatlari, metod va prinsiplari.
2. Milliy g'oyaning shakllanish tarixi va ularning namoyon bo'lish xususiyatlari.
3. Mustaqillik va milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining ishlab chiqilishi.
4. Milliy g'oya negizlarini asrab-avaylash, uni himoya qilish shart-sharoitlari va omillari.
5. Milliy g'oya – O'zbekiston xalqining ishonch-e'tiqodi manbai.
6. Milliy g'oyada milliy va diniy bag'rikenglik tamoyili.
7. "Diniy bag'rikenglik va ma'rifat rezolyutsiyasi" mazmuni.
8. Komil insonni tarbiyalashda milliy g'oyaning o'rni.
9. "Ommaviy madaniyat" tahdidi. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda milliy g'oyaning o'rni.
10. O'zbekistondagi mafkuraviy jarayonlar va milliy g'oyaga ehtiyoj.
11. Mafkuraviy markazlar va mafkuraviy profilaktika chora-tadbirlari.
12. Milliy g'oyaning milliy negizlar va umumdemokratik prinsplarga asoslanishi.
13. Milliy g'oyani ilmiy o'rganish, o'qitish, targ'ib-tashviq qilishning nazariy metodologik asoslari.
14. O'zbekistonda g'oyaviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqotning institusional tizimi.
15. O'zbekiston xalqaro mavqeini mustahkamlashda milliy g'oyaning o'rni.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlarini to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi" fanining nazariy asoslari. Fanning predmeti, maqsadi, vazifalari, kategoriyalari, qonuniyatlari, metod va prinsiplari.

| | |
|----|---|
| | <p>2. Milliy g'oya va mafkuramizning asosiy g'oyalari, tamoyillari hamda uning jamiyat hayotida namoyon bo'lishi.</p> <p>3. Dunyodagi va O'zbekistondagi mafkuraviy jarayonlarda milliy g'oyaning o'rni va ahamiyati.</p> <p>4. Globallashuv jarayonida o'zbek xalqi xayotiga xavf solayotgan ma'naviy mafkuraviy va informatsion tahdidlar.</p> <p>5. O'zbekistonning xalqaro nufuzi va mavqeini mustahkamlashda milliy g'oyaning o'rni.</p> <p>6. Milliy g'oyada milliy va diniy bag'rikenglik tamoyili.</p> <p>7. "Diniy bag'rikenglik va ma'rifat rezolyutsiyasi" mazmuni.</p> <p>8. Komil insonni tarbiyalashda milliy g'oyaning o'mi.</p> <p>9. "Ommaviy madaniyat" tahdidi. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda milliy g'oyaning o'rni.</p> <p>10. O'zbekistondagi mafkuraviy jarayonlar va milliy g'oyaga ehtiyoj.</p> <p>11. Mafkuraviy markazlar va mafkuraviy profilaktika chora-tadbirlari.</p> <p>12. Milliy g'oyaning milliy negizlar va umumdemokratik prinsplarga asoslanishi.</p> <p>13. Milliy g'oyani ilmiy o'rganish, o'qitish, targ'ib-tashviq qilishning nazariy metodologik asoslari.</p> <p>14. O'zbekistonda g'oyaviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqotning institutsiional tizimi.</p> <p>15. O'zbekiston xalqaro mavqeini mustahkamlashda milliy g'oyaning o'rni.</p> |
| 3. | <p>VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi" fani orqali milliy g'oya, uning ildizlari, taraqqiyotimizdagи o'rni hamda jamiyatdagи roli to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) - "Milliy tarixi va nazariyasi" fanini o'qitish, asosiy tamoyillari va ularning jamiyat a'zolari ayniqsa, yosh avlodni tarbiya qilishdagи rolini bilish va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma) - "Milliy tarixi va nazariyasi" fanini o'qitish, dunyo mamlakatlari taraqqiyot modellari to'g'risida ma'lumotlarga va ular bo'yicha kerakli xulosalar chiqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka). |
| 4. | <p>VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrslash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishslash; • taqdimotlarni qilish; |

| | |
|----|---|
| | <ul style="list-style-type: none"> • individual loyihalar; • jamoa bo‘lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar |
| 5. | <p style="text-align: center;">IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p> |
| 6. | <p style="text-align: center;">X. Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (Oliy ta’lim muassasalari uchun qo‘llanma).- T., Yangi asr avlod, 2001. 2. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (Izohli ko‘rgazmali vositalar to‘plami).- T., Yangi asr avlod, 2001. 3. Milliy istiqlol g‘oyasi: ko‘rgazmali vositalar.- T., Ma’naviyat, 2001. 4. Saifnazarov I. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Uslubiy ko‘rgazmali qo‘llanma.-T., TDIU, 2001. 5. Nazarov Q. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi.- T., “Ijod dunyosi”, 2002. 6. Ergashev I. Siyosat falsafasi.-T., Akademiya, 2004. 7. Ochildev A. Milliy g‘oya va millatlararo munosabatlari.- T.: O‘zbekiston, 2004. 8. Nazarov Q. G‘oyalar falsafasi. T.: Davlat va jamiyat qurilish akademiyasi. 2011. 9. J.Ya.Yaxshilikov, N.E.Muhammadiyev. Milliy g‘oya va mafkura. T.: Fan, 2015. 10.J.Ya.Yaxshilikov., N.E.Muhammadiyev. Milliy g‘oya – taraqqiyot strategiyasi. T.: Fan, 2017. <p style="text-align: center;">XI. Qo‘srimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent : O‘zbekiston, 2017. 2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. 3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. 4. O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” (Yangi tahrirda)gi Qonuni. – T.: “Adolat” nashriyoti 1998. 5. Karimov I.A. Ma’naviy yuksalish yo‘lida. -T.: Ma’naviyat, 1998. 6. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild.- Toshkent: O‘zbekiston, 1996; |

| | |
|----|--|
| | <p>7. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild.- Toshkent: O‘zbekiston, 1996;</p> <p>8. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild.- Toshkent: O‘zbekiston, 1996;</p> <p>9. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008.</p> |
| | <p style="text-align: center;">Axborot manbalari</p> <p>http://www.edu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.</p> <p>http://www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.</p> <p>http://www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali.</p> <p>www.pedagog.uz</p> <p>www.csipi.uz</p> <p>www.pedagog.uz</p> <p>www.edu.uz</p> <p>www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O‘z.MK)</p> <p>www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta’lim resurslari portalı</p> |
| 7. | <p>Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil “<u>29</u> ” nizgult dagi qarori bilan tasdiqlangan</p> |
| 8. | <p>Fan/modul uchun ma’sul:</p> <p>T.X.Tashmetov CHDPU, “Milliy g’oya” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori,(PhD).</p> |
| 9. | <p>Taqrizchilar:</p> <p>N.Nazarov - CHDPU, “Milliy g’oya” kafedrasi professori.</p> <p>Sobirova M.A- Nizomiy nomidagi TDPU “Milliy g’oya va ma’naviyat asoslari” kafedrasi dotsenti f.f.n.</p> |